

***ONA TILI VA ADABIYOT DARSALARINI INNOVASIYON YONDASHUV******Joniqulova Baxtiniso******Kosimova Nigora******Yusupova Marg'uba****Sirdaryo viloyati Guliston shahar**12-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lif samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta'lifiy o'yinlar o'quvchilarni faol ishtirokiga aylanish yo'llari hamda ona tili va adabiyot fanlaridagi muammoli mavzulardan kelib chiqib, bog'liq muammoni ajratib olish orqali yetuk malakaga ega bo'lishlar masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lifiy o'yinlar, texnologik xarita, muammoli vaziyat, innovasion texnologiyalar, interfaol metodlar.

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globllashuv vaqtida o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lif jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtida, mustaqil O'zbekistonimizda ushu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzuksiz ta'lifda masofaviy ta'lifni qo'llab, o'quvchilar bilimini baholashda raqamlı texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lif-tarbiya berish, ta'lifning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi.

Ta'lif jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'lifda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'r ganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lif jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumta'lif



maktablarida zamonaviy o`qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega. Darslarni innovasion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o`qituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lif mazmuni o`zgaradi. O`quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o`yinlardan foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo`lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz: Mashg'ulotni o`tkazish tartibi muammo o`zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o`rtasi bo`lib, bunda muammoning dolzarbliji va o`ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg'ulotda o`qituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni o`tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi.

O`rganuvchi sub'ektning o`ziga bo`lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga yo`naltiradi. Texnologiyaning afzalliklari. O`quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko`nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni. mantiqiy fikrlashni o`rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o`rganadi. Kamchiliklari. Vaqt ko`p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to`liq inobatga olinmasligi mumkin. O`zaro bir to`xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va h.k. Muammoli vaziyat va muammoning bayoni. Tafakkur - inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo`lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi hamda muammoni yechishga qaratilgan bo`ladi. Muammoning qo`yilishi. Muammonining bir necha yechim yo`llari mavjud ekanligi va ular ichidan eng optimal variantini tanlash shuningdek, muammoning yechimini topish. Muammoli vaziyatni shakllantirish tamoyillari. Muammoli o`quv toshiriqlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o`quvchilarni turli



muammolardan chiqib ketish yo`llarini axtarishga, kezi kelganda ana shu muammoning yechimini topishga yo`naltirish lozimligi tushuntiriladi. Masalan, G'.G'ulomning "Mening o`g'rigina bolam" hikoyasi asosida o`quvchilarni asar matnidan kelib chiqib, muammoni topishga, muammoni keltirib chiqargan sabablar hamda ushbu muammoni hal etish yo`llari haqida fikrlar bildiriladi. Masalan, hikoyadagi o`g`ri haqiqatan ham o`g`rimi, muammosi qo`yilsa, ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar - xalqning og`ir hayotga giriftor bo`lishi, mahalliy sharoitning og`irligi, noto`g`ri davlat boshqaruvi, ishsizlik, xalq boyligi huzurini boshqalar ko`rishi, urushning xalqqa yetkazgan zarari, deya mulohazalar bayon etilsa, muammoni hal etish yo`llari - mamlakat aholisini savodxon qilish, yurtni bosqinchilar zulmidan ozod etish, mingboshi, ellikboshi kabi chalasavod rahbarlar o`rniga savodli xalq vakillaridan tayinlash, ishsizlikni bartaraf etish, jamiyatni yanada rivojlantirishga o`z hissasini qo`shish kabilar nazarda tutiladi.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o`qituvchi o`quvchilarga dars mavzusi bilan bog`liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo`lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo`limgan, ortiqcha ma'lumotlar bo`lgan yoki savolning qo`yilishi noto`g`ri bo`lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o`qituvchi muammoni qo`yadi va o`zi yechadi;
- o`qituvchi muammoni qo`yadi va uning yechimini o`quvchilar bilan birgalikda topadi;
- o`quvchilarning o`zlari muammoni qo`yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo`llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o`rganish, tahlil qilish; - solishtirish, umumlashtirish;



- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- o`quvchilarning o`zлari aniq savollar qo`yishi va boshqalar.

Bu amaliy mashg'ulotda tinglovchilar quyidagi vazifalarni bajarishlari tavsiya qilinadi:

- O`qituvchilar o`z mutaxassislik fanlari bo`yicha o`zлari tanlagan mavzuda darsni eng maqsadga muvofiq muammoli o`qitish turlaridan foydalanib o`tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlaydilar va uning asosida guruh ishtirokida shu mashg'ulotni qisqa bayon qilib beradilar va tegishli muhokama o`tkaziladi.

Bunda o`quvchilarning quyidagi masalalar bo`yicha bilim, ko`nikma malakalarini yanada mustahkamlash nazarda tutiladi:

- O`quv fani va darslar mavzusini o`rgatishda ular bilan bog'liq muammoli masalalarni belgilash, ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish. O`quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish. Zarur o`quv vositalarini tayyorlash. - Muammoli vaziyatdagi mavjud ziddiyatni ko`rsatish, topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish.

- O`quvchilarning muammoni hal etishda yo`l qo`yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko`rsatish. O`quvchilarning noto`g`ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to`g`ri yo`lni topishlariga ko`maklashish va boshqalar. Dars ta'luming mazmuni, metodi va shakli kabi tushunchalar doirasida chegaralanib qolmaydi. Maktabdagi ta'lim, tarbiya va rivojlanishni pedagog va o`quvchilarni o`zaro hamjihat, hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, darsning sifati, samaradorligi o`qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko`rishiga bog'liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg`or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalanishi alohida o`rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi qonuni. / Barkamol avlod
- 5. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 20-29 betlar.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,- Xalq ta'limi, 1998, 1-sон.
3. "Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati ". N.Uluqov.Namangan
4. "Darsda hammasi bo'lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan".

(Совершенствование процесса обучения. М. 1971. 149 стр.).

